

**PRAFILAKTIKA INSPEKTORLARINING OILADA SODIR ETILADIGAN
HUQUQ BUZARLIKLARNING SODIR ETILISHI SABAB VA SHART
SHAROITLARINI O‘RGANISHNI AHAMIYATI**

Bozorov Bekjon Azamat o‘g‘li
IIV Akademiyasi 3-kurs kursanti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish, Yoshlar o‘rtasida jinoyatchilikka qarshi kurashish, Oilaviy huquqbuzarliklarning oldini olish, oilaviy jinoyatchilik sabablari va oqibatlari haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *jinoyatchilik, ijtimoiy tarmoqlar, mohokama, profilaktika, qaror, axborot, ta‘minlash, oldini olish, bartaraf etish.*

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati ichki ishlar vazirining 2021-yilda huquqbuzarliklarning oldini olish va ularning profilaktikasi holati to‘g‘risidagi axborotini eshitib va muhokama qilib, bu borada muayyan ishlar amalga oshirilganini qayd etadi.

Xususan, Oliy Majlis Senati tomonidan 2021-yil 30-iyulda ichki ishlar vazirining 2021-yilning 6 oyida huquqbuzarliklarning oldini olish va ularning profilaktikasi holati to‘g‘risidagi axboroti yuzasidan qabul qilgan Qarori bajarilishi ta‘minlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti topshiriqlari doirasida 4 ta qonun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2 ta farmoni va 6 ta qarori hamda 21 ta Hukumat qarori qabul qilingan.

O‘zbekiston Respublikasida jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olishga mas‘ul organlar o‘z vakolatlarini har qanday davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslardan mustaqil holda, faqat qonunga bo‘ysinib amalga oshiradilar.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar jinoyatchilikka qarshi kurash choralarini samarali bajarish va asosiy faoliyat yo‘nalishlarini kelishish asosida ta‘minlash maqsadida o‘z faoliyatlarini muvofiqlashtiradi.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish deganda tezkor-qidiruv faoliyatini, surishtiruvni, dastlabki tergovni amalga oshiradigan organlarning jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish nazarda tutiladi.

Huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikni jilovlash masalasi ham davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan.

Yoshlar o‘rtasida jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarliklarning oldini olish yuzasidan huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan birga mahalliy hokimlik va boshqa mutasaddi idoralar zimmasiga muhim vazifalar yuklangan. Ular buni bajarish bo‘yicha turli chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda.

2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning

oldini olish borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirish, diniy ekstremizm, terrorizm va uyushgan jinoyatchilikning boshqa shakllariga qarshi kurashish bo'yicha tashkiliy-amaliy choralarni kuchaytirish, korrupsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish va samaradorligini oshirish, aholining huquqiy madaniyati va ongini yuksaltirish, bu borada davlat tuzilmalarining fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro samarali hamkorligini tashkil etish bilan bog'liq aniq vazifalar belgilangan.

Oilaviy huquqbuzarliklar har qanday jamiyatda jiddiy muammo bo'lib, to'g'ri munosabatlarni buzishga, bolalarning ruhiy va jismoniy rivojlanishiga zarar yetkazishga olib kelishi mumkin. Oila a'zolari o'rtasida bo'ladigan zo'ravonlik, haqorat, tahdid, har qanday shakldagi zo'ravonlik va shunga o'xshash amallar oilaviy huquqbuzarlik hisoblanadi.

Oilaviy huquqbuzarliklarning asosiy sabablari:

- Ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar: Qashshoqlik, ishsizlik, uy-joy muammolari, oilaviy moliyaviy muammolar.
- Madaniy va urf-odatlar: Zo'ravonlikni oddiy holat sifatida ko'rish, qizlarni erkaklardan kamroq qadrlash, erkaklarning oila boshlig'i sifatidagi ustunligi.
- Ruhiiy-psixologik muammolar: Alkogolizm, giyohvandlik, tajovuzkorlik, ruhiy kasalliklar, stress.
- Ta'lim va madaniyat darajasi: Ta'lim darajasi past bo'lgan oilalarda zo'ravonlik ko'proq uchraydi.
- Oilaviy tarix: Zo'ravonlik tarixi bo'lgan oilalarda bolalar zo'ravonlik qilishga moyilroq bo'ladi.

Oilaviy huquqbuzarliklarni oldini olish va ularga qarshi kurashish uchun quyidagi hamkorlik faoliyati muhim ahamiyatga ega:

- Qonunchilikni takomillashtirish: Zo'ravonlikka qarshi qonunlarni kuchaytirish, zo'ravonlik qurbonlarini himoya qilish bo'yicha choralarni ko'rish.
- Ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish: Oilaviy zo'ravonlik qurbonlariga yordam beradigan markazlar, ishonch telefonlari, qo'llab-quvvatlash guruhlarini tashkil etish.
- Ta'lim va targ'ibot: Oilaviy zo'ravonlikning salbiy oqibatlarini to'g'risida jamoatchilikni xabardor qilish, tinch yo'llar bilan muammolarni hal qilishni o'rgatish.
- Oilaviy terapiya va maslahat xizmatlarini rivojlantirish: Oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilashga yordam berish.
- Hamkorlik: Hukumat, nodavlat tashkilotlari, jamoatchilik va xalqaro tashkilotlarning hamkorligi muhim.
- Xabardorlikni oshirish: Ijtimoiy media, ommaviy axborot vositalari orqali zo'ravonlikka qarshi kurashishga oid kampaniyalarni o'tkazish.

Oilaviy huquqbuzarliklarning oldini olishda, hamma - oila a'zolari, jamoatchilik, hukumat va nodavlat tashkilotlarning hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Faqatgina birgalikda harakat qilib, biz oilaviy zo'ravonlik muammosini hal qila olamiz.



ADABIYOTLAR:

1. Jinoyatlarni tergov qilish metodikasi. Toshkent-2017. O'zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi. 184-b. Maruzalar kursi.
2. Kriminalistika darslik. Toshkent-2018. Mualliflar jamoasi
3. Uyushgan guruhlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish. I.A.Sottiyev. O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi Akademiyasi. Toshkent-2012.